

**“TASDIQLANGAN”**  
**“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi**  
**iqtisodiy faoliyat milliy banki”**  
**aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvining**  
**2026-yil “28” yanvardagi**  
**10-sonli majlis bayoni**

**“O‘ZMILLIYBANK” AJ TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARNING**  
**AMALDAGI KREDITLARI BO‘YICHA KREDIT SHARTNOMASI**  
**SHARTLARIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH**  
**(RESTRUKTURIZATSIYA) TO‘G‘RISIDAGI**  
**TARTIB**

Toshkent-2026

## **MUNDARIJA**

- I. UMUMIY QOIDALAR
- II. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING MAZMUNI
- III. KREDIT SHARTNOMALARINI RESTRUKTURIZATSIYA QILISHNING MAQSADI VA TARTIBI
- IV. RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TO‘G‘RISIDAGI QARORNI IJRO ETISH TARTIBI
- V. ARIZAGA ILOVA QILINADIGAN HUJJATLAR RO‘YXATI
- VI. YAKUNIY QOIDALAR
- VII. ILOVALAR

## I. Umumiy qoidalar

1.1. “O‘zmiliybank” AJ tizimida jismoniy shaxslarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to‘g‘risidagi tartibi (keyingi o‘rinlarda – “Tartib”) O‘zbekiston Respublikasining “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari, jumladan Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 9-oktabrdagi 25/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizomga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar (*O‘zRAV tomonidan 2025-yil 28-oktabrda 3030-11-son bilan ro‘yxatga olingan*) va 2015-yil 13-iyundagi 14/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (*O‘zRAV tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro‘yxatga olingan*) hamda “O‘zmiliybank” AJ (keyingi o‘rinlarda – “Bank”) Ustavi va ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zmiliybank” AJ (keyingi o‘rinlarda – “Bank”) tizimida jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya) tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu Tartib Bankning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan, moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o‘z vaqtida kredit to‘lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan jismoniy shaxslarning amaldagi (*ipoteka, avtokredit, mikroqarz*) kredit shartnomasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to‘g‘risidagi arizalarini ko‘rib chiqish jarayonida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuini belgilaydi.

1.3. Mazkur Tartib talablari korrupsiyaviy holatlar hamda manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakat (harakatsizlik)larni sodir etilishini ta‘qiqlaydi.

## II. Asosiy tushunchalar va ularning mazmuni

2.1. **Shartlarini qayta ko‘rib chiqish** (Restrukturizatsiya) — bu qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini tiklash hamda Bank kredit tavakkalchiligi (riski)ni saqlagan yoki kamaytirgan holda qarzdorlikni qaytarishni ta‘minlash maqsadida kredit majburiyatining dastlabki shartlarini qo‘shimcha kelishuv orqali o‘zgartirishdir. Ular Bankning ichki qoidalari hamda kollegial organlar qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.2. **Moliyaviy qiyinchiliklar** – qarz oluvchi daromadlari yoki moliyaviy resurslari kredit shartnomasi bo‘yicha to‘lovlarni kutilmagan holatlar (og‘ir kasalliklar natijasida yuzaga kelgan va tasdiqlangan nogironlikning I yoki II guruhi, yagona boquvchisini yo‘qotganlik, vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolishi,

fors-major hodisalarning yuzaga kelishi) natijasida belgilangan muddatda amalga oshirish uchun yetarli bo'lmagan holati.

**2.3. Restrukturizatsiya turlari** — qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklash, mijozni qo'llab-quvvatlash hamda kredit tavakkalchiligini minimallashtirish maqsadida kredit majburiyatining dastlabki shartlarini (summasi, muddati, foiz stavkasi, to'lovlar jadvali va ta'minoti) o'zgartirishning shakl va usullaridir.

**2.4. Fors-major holatlari** - kutilmagan, oldindan prognoz qilinmaydigan va qarz oluvchiga bevosita bog'liq bo'lmagan, tashqi sharoitlar (tabiiy ofatlar, urush, favqulodda vaziyatlar kabi) natijasida kredit to'lovlarini to'liq yoki qisman amalga oshirishni imkonsiz qiluvchi holatlar.

**2.5. Bankning kollegial organi** - bankning mas'ul xodimi tomonidan muhokamaga kiritilgan arizalarni ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organ. Mazkur Nizom doirasida kollegial organ sifatida Bankda faoliyat yurituvchi kredit qo'mitasi tushuniladi.

**2.6. Bankning tarkibiy tuzilmasi** - Bank tizimidagi hududiy Bosh boshqarmalar, Bank xizmatlari markazi (BXM) va Bank xizmatlari ofis (BXO)lari tushuniladi.

**2.7. Kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv** - qarz oluvchi va bank o'rtasida mavjud kredit shartnomasiga kiritiladigan o'zgarishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi yozma kelishuv bo'lib, u kredit shartlari, to'lov muddati, foiz stavkasi, jarima va peniyalar miqdori, shuningdek boshqa kredit shartlariga taalluqli elementlarni o'z ichiga oladi.

**2.8. Qaror** - ariza bo'yicha Bankning kollegial organ tomonidan rasmiy qabul qilingan, kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish yoki rad etish to'g'risidagi yozma xulosa.

**2.9. Birgalikda qarzdor (qo'shimcha qarzdor)** – qarzdor bilan kredit va uning foizlari bo'yicha oylik to'lovlarda qatnashuvchi, shuningdek kredit bo'yicha solidar javobgar shaxs.

**2.10. O'zini o'zi band qilgan shaxslar** — mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar.

**2.11. Jalb qilingan mablag'lar** - O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasidan jalb qilingan resurslar hisobidan ajratilgan kreditlar hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligidan subsidiya asosida rasmiylashtirilgan kreditlar.

### **III. Kredit shartnoma shartlarini qayta ko‘rib chiqishning maqsadi va tartibi.**

3.1. **Jismoniy shaxslar kreditlarini restrukturizatsiya qilishdan maqsad** – qarz oluvchining Bank oldidagi mavjud majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali uning moliyaviy yukini kamaytirishdan iborat.

3.2. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish bo‘yicha Bankning quyidagi kollegial organlari tomonidan o‘z vakolati doirasida qaror qabul qilinadi:

a) BXM/BXO Kredit qo‘mitasi.

b) Bosh bankning tegishli Kredit qo‘mitasi.

3.3. Qarz oluvchi BXM/BXOga moliyaviy restrukturizatsiya bo‘yicha murojaat qilganda, kredit ajratilgandan so‘ng 2-ilovada nazarda tutilgan holat yuzaga kelgan bo‘lsa, Bankning hududiy Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi/bo‘limi/Dastlabki undiruv bo‘limi/sho‘basi, BXM xodimlari hamda BXO mudirlari (keyingi o‘rinlarda – “mas’ul xodim”) mijozdan arizani tartibning 1-ilovasiga muvofiq to‘ldirilgan hamda imzolangan holda, quyida keltirilgan zarur hujjatlar bilan birga qabul qiladi:

a) moliyaviy holat yomonlashganini tasdiqlovchi hujjatlar (*2 ilova 1-5 bandlari*);

b) shaxsni tasdiqlovchi hujjat (*yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatlar*).

Hujjatlarni ro‘yxatga olish bankning mas’ul xodimi tomonidan ichki qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

3.4. Mazkur tartibning 2-ilovasida nazarda tutilgan restrukturizatsiya qilishga asos bo‘luvchi holatlar qarz oluvchi tomonidan Bankka murojaat qilingan sanadan oldingi 4 (to‘rt) oy mobaynida yuzaga kelgan bo‘lishi lozim. Ushbu muddat

3.5. Moliyaviy qiyinchiliklar yoki fors-major holatlar sababli kreditni o‘z vaqtida so‘ndirishda qiyinchiliklarga duch kelgan iste’molchilarning amaldagi kreditlari bo‘yicha restrukturizatsiya qilish to‘g‘risidagi arizalar bankka kelib tushgan kundan boshlab “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi” qonunga asosan 15 (o‘n besh) bank ish kuni ichida, qo‘shimcha o‘rganish va tekshirish, hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda 1 (bir) oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

3.6. Kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya) turlari quyidagilar:

Kredit to‘lov jadvali muddatini uzaytirish (*3-ilova*);

Kredit ta‘tilini berish (*4-ilova*);

Kredit to‘lovlar jadvalini o‘zgartirish (*5-ilova*);

Kredit foiz stavkalari va penyalarni qayta ko‘rib chiqish.

3.7. Kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Ushbu Tartibning 2-ilovasida ko‘rsatilgan me‘zonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

3.8. Kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo‘ladigan moliyaviy qiyinchiliklar hamda fors-major holatlar quyidagilar:

a) qarz oluvchi yoki uning oila a‘zolariga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi. (*Kredit rasmiylashtirilgunga qadar nogironligi bo‘lgan shaxslar bundan mustasno*);

b) qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi yoki kafil bo‘lgan shaxsning vafot etishi;

d) qarz oluvchining homiladorlik va tug‘ish ta‘tiliga chiqishi;

e) qarz oluvchining 2 (ikki) oydan ortiq davr mobaynida ish joyini yo‘qotishi (*Qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi, ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida ro‘yxatga olinishi*) Bu holatda o‘zini o‘zi band qilgan mijozlarga restrukturizatsiya qo‘llanilmaydi.

f) Tartibning 3.4.-bandiga muvofiq qarz oluvchi yoki unga qaram bo‘lgan shaxsning hamda birgalikda qarz oluvchining og‘ir kasalligi (*shifoxona ma‘lumotnomasi, maxsus dispanser xulosasi va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar taqdim etiladi*);

g) tibbiy (*pandemiya, epidemiya*), tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatning yuzaga kelishi.

3.9. Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi/kafil bo‘lgan shaxs tomonidan yuborilgan arizalar mas‘ul xodimlar tomonidan kompleks o‘rganiladi hamda ijobiy xulosa shakllantirilgan taqdirda BXM/BXO Kredit qo‘mitasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi hamda ushbu ariza BXM/BXO Kredit qo‘mitasi tomonidan o‘zining vakolati (limit) doirasida ko‘rib chiqiladi.

3.10. BXM/BXO Kredit qo‘mitasi tomonidan kredit shartnoma shartlarini o‘zgartirish bo‘yicha arizani qanoatlantirishni rad etish bo‘yicha qaror qabul qilingan taqdirda, bu to‘g‘risida asoslantirilgan holda arizachiga yozma ravishda javob xat yuboriladi. Qabul qilingan qarordan rozi bo‘lmasa, mijoz vakolatli bo‘linma va aloqa kanallariga shikoyat berish huquqiga ega.

BXM/BXO Kredit qo‘mitasi tomonidan vakolati (limit)dan yuqori bo‘lgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, xulosa kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan oshmagan muddatda Bankning hududiy Bosh boshqarmasi Kredit qo‘mitasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

3.11. Bankning hududiy Bosh boshqarmasi Kredit qo‘mitasi vakolati (limit) doirasidagi kreditlarni restrukturizatsiya qilish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, bu bo‘yicha yig‘ilish bayonnomasi rasmiylashtiriladi, unda kreditni restrukturizatsiya qilish turi ko‘rsatiladi. Vakolati (limit)dan yuqori bo‘lgan kreditlarni restrukturizatsiya qilish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, quyidagi hujjatlarni rangli skaner nusxalarini ilova qilgan holda Bosh ofis Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamentiga yuboradi:

- a) restrukturizatsiya to‘g‘risidagi ariza (*1-ilova*);
- b) shaxsni tasdiqlovchi hujjat (*yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatlar*) nusxasi;
- d) moliyaviy holat yomonlashganini tasdiqlovchi hujjatlar;
- e) mas’ul xodim xulosasi;
- f) hududiy Bosh boshqarma Kredit qo‘mitasi yig‘ilish bayonnomasi;
- g) kredit shartnomasiga qo‘shimcha kelishuv hamda to‘lov jadvali loyihasi.

3.12. Bitta kredit doirasida faqat bir marta o‘zgartirish kiritish mumkin.

3.13. Qarz oluvchining murojaatiga ko‘ra bank tomonidan kredit shartnomasi muddati mobaynida to‘lovlar muddati birinchi marotaba ushbu Tartibning 2- ilovasida ko‘rsatilgan holatlar natijasida kechiktirilganda yoki uzaytirilganda kredit tasnifi o‘zgartirilmaydi va shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktiv sifatida tasniflanmaydi.

3.14. Restrukturizatsiya qilish turini aniqlash metodikasi quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

a) Kredit shartnoma muddatini uzaytirish (prolongatsiya) - to‘lovlar jadvali mazkur Tartib qoidalariga muvofiq moslashtiriladi va kredit muddati ma’lum davrga uzaytiriladi hamda quyidagi shartlarning barchasi bir vaqtda bajarilganda qo‘llaniladi:

- mavjud muammolar qisqa muddatli emas, balki uzoq davom etishi yoki qachon bartaraf etilishi aniq bo‘lmagan holatlarda;
- to‘lovga qobiliyatning o‘rta yoki uzoq muddatda tiklanishi aniqlanganda;
- mijoz majburiyatlarni hozirgi hajmda bajarish imkoni yo‘qligi tasdiqlanganda;
- kredit muddati uzaytirilishi, ruxsat etilgan qarz yuki ko‘rsatkichidan oshirilmaydi va mazkur kredit bo‘yicha ijobiy kredit tarixi mavjud bo‘lganda.

b) Kredit ta’tili (kredit muddati o‘zgartirilmasdan) — kredit bo‘yicha to‘lovlar vaqtincha to‘xtatiladi va ta’til muddatidan kelib chiqib kreditning qolgan muddatlariga teng miqdorda taqsimlanadi, agar quyidagi shartlarga to‘g‘ri kelsa:

- holatlar vaqtinchalik bo‘lsa;
- daromad tiklanish muddati prognoz qilinadigan va tasdiqlangan bo‘lsa;
- mijoz avvalgi majburiyatlarini lozim darajada bajargan bo‘lsa;
- muddat oxiridagi to‘lovlar oshishi sezilarli kredit tavakkalchiligini keltirib chiqarmasa.

c) To'lovlar jadvalini o'zgartirish — kechiktirilgan to'lovlar qolgan barcha to'lovlarga teng taqsimlanadi, agar:

- mijoz joriy daromadni saqlab qolgan bo'lsa;
- to'lovga qobiliyat pasaygan, biroq oshirilgan oylik to'lovni qoplash uchun yetarli bo'lsa;
- kredit muddatini uzaytirish zarurati bo'lmasa;

d) Kredit foiz stavkalari va penyalarni qayta ko'rib chiqish 2-ilovada ko'rsatilgan me'zonlarga muvofiq ko'rib chiqilishi mumkin.

3.15. Restrukturizatsiya kredit kartalari, overdraft, imtiyozli kreditlar, jalb qilingan resurslar hisobidan ajratilgan kreditlar, sud qarori chiqarilgan, MIB ijrosidagi kreditlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Qarzdorlikni undirish yuzasidan sudga berilgan, lekin sudning hal qiluv qarori chiqmagan kreditlarni restrukturizatsiya qilish, bank va mijoz o'rtasidagi mediativ kelishuv sud tomonidan qabul qilinib, da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrimi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

#### **IV. Restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi qarorni ijro etish tartibi**

4.1. Mas'ul xodim restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ijobiy javob olgan kundan boshlab quyidagi hujjatlarni tayyorlaydi:

- a) amaldagi kredit shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- b) kafillik shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- d) garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- e) to'lov jadvaliga kiritilgan o'zgartirish;
- f) sug'urta tashkiloti bilan qo'shimcha kelishuvlar tuzish;

g) zarur holatlarda garov mulkining kelishish narxi tomonlar roziligiga asosan kamaytiriladi hamda shartnoma shartlariga qo'shimcha kiritiladi.

Restrukturizatsiya qilish jarayonida vujudga keladigan barcha xarajatlar qarzdor tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Qarz oluvchining o'limi sababli kreditni o'z vaqtida so'ndirishda qiyinchiliklarga duch kelgan iste'molchilarning amaldagi kreditlari bo'yicha qarzdorliklar garov ta'minoti sifatida qabul qilingan sug'urta polisi asosida qoplanishi belgilangan.

Bunda kreditlash jarayonida kredit qaytmaslik xatarini oldini olish hamda kredit ta'minoti sifatida garovga qabul qilingan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomalarini rasmiylashtirishda mazkur tartibning bandlaridan kelib chiqib, barcha jixatlarni inobatga olish talabini qo'yish lozim.

4.3. Kreditni Restrukturizatsiya hujjatlari imzolanishi qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchi/vafot etgan qarz oluvchi merosxo‘rining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Kredit majburiyatlarini restrukturizatsiya qilish to‘g‘risidagi qarorni ijro etishda barcha manfaatdor ishtirokchilar jalb etilishi lozim, jumladan:

- a) qarzdor (*er/xotin*);
- b) garovga qo‘yuvchi (*er/xotin*);
- d) kafil bo‘lgan shaxs;
- e) vafot etgan qarz oluvchining yaqin qarindoshlari;
- f) agar kredit Davlat kafolati yoki kompensatsiyasi ostida berilgan bo‘lsa, vakolatli davlat organlarining roziligi olinishi majburiy hisoblanadi.

4.4. Qabul qilingan qaror asosida tegishli tarkibiy bo‘linmalar tomonidan qarzdorga oid ma‘lumotlarga tizimda tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

4.5. Mas‘ul xodim hujjatlarni qabul qilish, to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda barcha hujjatlarning Bankning amaldagi ichki qoidalari, tasdiqlangan shartnoma shakllari va vakolatli organlar qarorlariga muvofiq imzolanishini ta‘minlashi shart. Ularni saqlash, topshirish, namuna va tahrirlarning to‘g‘riligi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank ichki qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash, shuningdek, Bankning avtomatlashtirilgan tizimlariga ma‘lumotlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri kiritish uchun javobgar hisoblanadi.

4.6. Ushbu javobgarlik doirasida mas‘ul xodimning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- a) mijozdan Bank ichki qoidalarida nazarda tutilgan to‘liq hujjatlar to‘plamini qabul qilish;
- b) imzolangan hujjatlarning to‘g‘riligini, dolzarbligini va yaxlitligini tekshirish;
- d) hujjatlarning asl nusxalari va ko‘chirma nusxalarini belgilangan tartibda saqlash;
- e) hujjatlarni zarur holatda Bankning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga topshirish;
- f) restrukturizatsiya va yangi to‘lovlar jadvali bo‘yicha ma‘lumotlarni Bank tizimlariga kiritish;
- g) tizimlardagi ma‘lumotlarning imzolangan hujjatlarga mosligini ta‘minlash;
- h) aniqlangan xato va nomuvofiqliklar haqida darhol xabar berish.

4.7. Hujjatlarni rasmiylashtirish, saqlash, topshirish yoki Bank tizimlariga ma‘lumot kiritish tartibining buzilishi Bank ichki qoidalari buzilishi hisoblanadi va amaldagi mehnat qonunchiligi hamda Bank ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralarini qo‘llashga sabab bo‘ladi.

4.8. Mijozlar bilan tuzilayotgan tegishli shartnomalarni hamda boshqa hujjatlarni (shakllantirish formatidan qat‘iy nazar) rasmiylashtirish, saqlash, qayta

ishlash va tarqatilish Bankning axborot xavfsizligi siyosati hamda boshqa amaldagi axborot xavfsizligi va konfidensiallik sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu majburiyatlar BXM boshqaruvchisi, boshqaruvchi o'rinbosari (chakana xizmat ko'rsatish guruhi bo'yicha) hamda mas'ul xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

## **V. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati**

### **5.1. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:**

- Tibbiy xulosalar: Qarz oluvchining mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotganligini tasdiqlovchi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi (TIEK) xulosasi yoki uzoq muddatli statsionar davolanish haqida davlat tibbiyot muassasalarining belgilangan shakldagi ma'lumotnomalari;

- O'lim guvohnomasi: Qarz oluvchi yoki uning birgalikda qarz oluvchisi (kafil) vafot etgan taqdirda, FHDYO organlari tomonidan berilgan o'lim haqidagi guvohnomaning nusxasi. Bunda mazkur holatda faqatgina merosxo'rlar aniqlangunga yoki meros rad qilingunga qadar oraliq to'lov miqdorlari saqlangan holda kredit muddati uzaytirib berilishi mumkin.

- Fors-major holatlari: kutilmagan, oldindan prognoz qilinmaydigan va qarz oluvchiga bevosita bog'liq bo'lmagan, tashqi sharoitlarni (tabiiy ofatlar, urush, favqulodda vaziyatlar kabi) tasdiqlovchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi yoki boshqa vakolatli organlarning rasmiy dalolatnomalari va qarorlari;

- Mehnat munosabatlariga oid hujjatlar: Mijozning o'z hohishiga yoki boshqa sabablarga ko'ra ishdan bo'shaganligi, ish beruvchi tomonidan shtat qisqartirilishi yoki korxonaga tugatilishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruq nusxasi hamda Bandlikka ko'maklashish markazidan ishsiz sifatida ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

6.1. Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Mazkur Tartib talablarini buzgan Bank xodimlarining javobgarlik darajasi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga, shuningdek xodimlarning javobgarligini tartibga soluvchi bankning ichki hujjatlari va qoidalariga muvofiq belgilanadi.

6.3. Bank xodimlari mazkur hujjat bilan tartibga solinadigan munosabatlarda yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar aniqlanganda, shuningdek, ularning sodir etilishiga shubha tug'dirganda, bu haqda bankning Komplayens tavakkalchilik bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasini xabardor qilishi shart.

6.4. Mazkur tartibga o'zgartirishlar va qo'shimchalar bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq kiritiladi.

6.5. Mazkur Tartib talablariga rioya etilishini nazorat qilish va uni qonunchilikdagi o'zgarishlardan kelib chiqib, o'z vaqtida yangilab borish vazifasi Kreditlarni monitoring qilish va dastlabki undirish departamenti zimmasiga yuklatiladi.

*Kiritildi:*

Kreditlarni monitoring qilish  
va dastlabki undirish  
departamenti direktori

B.Axmedov

*Kelishildi:*

Boshqaruv Raisi  
o'rinbosari

B. Mirdovidov

Yuridik departamenti direktori v.v.b.

I. Iskanov

Chakana biznesni operatsion  
qo'llab-quvvatlash  
departamenti direktori v.b.

X.Ishniyazov

Ipoteka krediti boshqarmasi  
boshlig'i

J. Djulibekov

Davlat dasturlarini moliyalashtirish  
departamenti direktori

A.Aslanov

Komplayens tavakkalchiligi bloki  
boshlig'i

S.Nurkulov

Xatarlarni boshqarish  
departamenti direktori

Sh. Sulaymonov

Axborot va bank xavfsizligi  
departamenti direktori

Sh. Muxamadkulov

Metodologiya boshqarmasi boshlig'i

I. Abasov

“O‘zmilliybank” AJ tizimida jismoniy shaxslarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to‘g‘risidagi Tartibga

I-Ilova

“O‘zmilliybank” AJ  
BXM/BXO boshlig‘i  
ga  
dan

(FISH)

JISHSHR(PINFL)\_\_\_\_\_

Telefon raqam

Yashash joyi

## KREDITNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH BO‘YICHA

### ARIZA

Sizdan 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_\_ - sonli kredit shartnomasiga asosan ajratilgan kredit to‘lovlari bo‘yicha quyidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi munosabati bilan ushbu kreditni restrukturizatsiya qilib berishingizni so‘rayman.

To‘lovlar bo‘yicha yuzaga kelgan qiyinchiliklar sababi (hodisa) ko‘rsatilsin. Misol uchun:

1. Bola parvarish ta‘tili (Homiladorlik va tug‘ruq ta‘tilida bo‘lgan ayol (qarz oluvchi) uchun tasdiqlovchi hujjatlar);
2. Ish joyini yo‘qotishi (Qarz oluvchining bandlik organlarida ishsiz sifatida ro‘yxatga olinganini hamda mehnat shartnomasining bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar);
3. Nogironlik (Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining I yoki II guruh nogironlikka ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat);
4. Og‘ir kasallik (Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining yoki uning oila a‘zolarining og‘ir kasalligi (shifoxona ma‘lumotnomasi, onkodispenser xulosasi va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar taqdim etilishi lozim);
5. O‘lim (Qarz oluvchini o‘limini tasdiqlovchi hujjat, bunda yaqin qarindoshlari tomonidan o‘lim guvohnomasi taqdim etiladi va ariza bilan bankka murojaat qilinadi).

Kredit shartnomasi shartlarini qayta ko‘rib chiqishni va quyidagi restrukturizatsiya choralarini qo‘llashni so‘rayman (maqbul variantni tanlang):

(1.Kredit muddatini uzaytirish. 2. Kredit ta‘tili berish. 3.Kredit to‘lovini grafik ichida qayta taqsimlash. 4. Kredit foiz stavkalari va penyalarni qayta ko‘rib chiqish).

Ilova qilingan hujjatlarning skaner nusxalari ro‘yxati (sanab o‘ting)\_\_\_\_\_

Ushbu arizani imzolash orqali men yangi to‘lov jadvali va kiritilgan o‘zgartirishlarga to‘liq roziman.

Garov ob‘yekti bo‘yicha shartlar va muddatni o‘zgartirish (garov bilan ta‘minlangan kreditlar uchun), shuningdek, kechiktirish bilan bog‘liq harajatlarni qoplash hamda kechiktirish muddati tugagandan so‘ng, kreditni belgilangan miqdorda o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini olaman.

Ushbu ariza mening shaxsan imzo qo‘yish uchun elektron raqamli/qo‘lim bilan imzolanganligini tasdiqlayman.

(imzo)

(sana)

### Tasniflash me‘zonlarini belgilash

Tasniflash		Toifa	Bitim shartlari
Hodisa	Tasdiqlovchi hujjatlar		
1.	Qarz oluvchining homiladorlik va tug‘ish ta‘tiliga chiqishi	I	Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish muddati 10 oygacha;
2.	Ish joyini yo‘qotishi	II	Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;
3.	Nogironlik	III	Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Kredit davrini uzaytirish bo‘yicha maksimal muddat 6 oygacha;
4.	Og‘ir kasallik	IV	Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Mehnatga layoqatsizlik muddati 2 oydan oshganda; Kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;
5.	O‘lim	V	Bankka murojaat; Birgalikda qarz oluvchi / qarindosh (merosxo‘r) tomonidan Bankka murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Har bir ariza alohida ko‘rib chiqiladi, kredit davrini uzaytirish muddati 6 oygacha Majburiyatlar merosxo‘rlarga qabul qilingan meros qiymati doirasida o‘tadi;
6.	Fors-major (favqulodda vaziyat) holatlari	VI	Oqibatlar Qarzdorning mol-mulkiga zarar yetkazgan va kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalasini ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladigan yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari: a) tabiiy hodisalar (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, toshqin va boshqalar); b) texnogen halokatlar (yong‘inlar, portlashlar va boshqalar).

### Kredit to‘lov jadvali muddatini uzaytirish.

<b>Kredit muddatini uzaytirish</b>						
<b>Eski grafik</b>			<b>Yangi grafik</b>			
1	Sana	To'lov summasi	1	Sana	To'lov summasi	
2	Sana	To'lov summasi	2	Sana	To'lov summasi	
3	Sana	To'lov summasi	3	Sana	To'lov summasi	
4	Sana	To'lov summasi	4	Sana	To'lov summasi	
5	Sana	To'lov summasi	<b>5</b>	<b>Muddati uzaytirilayotgan davr</b>		
6	Sana	To'lov summasi	<b>6</b>			
7	Sana	To'lov summasi	<b>7</b>			
8	Sana	To'lov summasi	8	Sana	To'lov summasi	
9	Sana	To'lov summasi	9	Sana	To'lov summasi	
10	Sana	To'lov summasi	10	Sana	To'lov summasi	
11	Sana	To'lov summasi	11	Sana	To'lov summasi	
12	Sana	To'lov summasi	12	Sana	To'lov summasi	
			13	Sana	To'lov summasi	<b>Kreditning uzaytirilgan yakuniy muddati</b>
			14	Sana	To'lov summasi	
			15	Sana	To'lov summasi	

*“O‘zmilliybank” AJ tizimida jismoniy shaxslarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to‘g‘risidagi Tartibga*  
**4-Ilova**  
*(namuna)*

**Kredit ta‘tilini berish.**

<b>Kredit ta'tili berish</b>					
<b>Eski grafik</b>			<b>Yangi grafik</b>		
1	Sana	To'lov summasi	1	Sana	To'lov summasi
2	Sana	To'lov summasi	2	Sana	To'lov summasi
3	Sana	To'lov summasi	3	Sana	To'lov summasi
4	Sana	To'lov summasi	4	Sana	To'lov summasi
5	Sana	To'lov summasi	<b>5</b>	<b>Ta'til berilayotgan davr</b>	
6	Sana	To'lov summasi	<b>6</b>		
7	Sana	To'lov summasi	<b>7</b>		
8	Sana	To'lov summasi	8	Sana	To'lov summasi
9	Sana	To'lov summasi	9	Sana	To'lov summasi
10	Sana	To'lov summasi	10	Sana	To'lov summasi
11	Sana	To'lov summasi	11	Sana	To'lov summasi
12	Sana	To'lov summasi	12	Sana	To'lov summasi

**Kredit ta'til davridagi to'lovlar ta'til davriga mos ravishda taqsimlanadi**

*“O‘zmilliybank” AJ tizimida jismoniy shaxslarning amaldagi kreditlari bo‘yicha kredit shartnomasi shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (restrukturizatsiya) to‘g‘risidagi Tartibga*  
**5-Ilova**  
*(namuna)*

**Kredit to‘lovlar jadvalini o‘zgartirish.**

<b>Kredit</b>					
<b>to'lovini grafik ichida qayta taqsimlash</b>					
<b>Eski grafik</b>			<b>Yangi grafik</b>		
1	Sana	To'lov summasi	1	Sana	To'lov summasi
2	Sana	To'lov summasi	2	Sana	To'lov summasi
3	Sana	To'lov summasi	3	Sana	To'lov summasi
4	Sana	To'lov summasi	4	Sana	To'lov summasi
5	Sana	To'lov summasi	<b>5</b>	<b>Muddati qayta taqsimlanayotgan davr</b>	
6	Sana	To'lov summasi	<b>6</b>		
7	Sana	To'lov summasi	<b>7</b>		
8	Sana	To'lov summasi	8	Sana	To'lov summasi
9	Sana	To'lov summasi	9	Sana	To'lov summasi
10	Sana	To'lov summasi	10	Sana	To'lov summasi
11	Sana	To'lov summasi	11	Sana	To'lov summasi
12	Sana	To'lov summasi	12	Sana	To'lov summasi

To'lovlar qolgan oylarga teng taqsimlanadi